


# RASMIY MUNOSABAT



Termiz shahar hokimining 23.07.2018 yildagi Q-2009-sonli qarori bilan "Qurbanov Normo'min" MChJga shaharning A.Navoiy va loyihadagi 7-7 ko'chalari kesishuvidan 7 qavatli yerto'lali 1-qavatida savdo va maishiy xizmat ko'rsatish nuqtalari bilan birgalikda tura-joy binosini qurish uchun 3800,0 kv.m. yer maydoni ajratilgan, viloyat qurilish bosh boshqarmasi tomonidan 2018 yildagi 130-sonli arxitektura-rejalashtirish topshirig'i tayyorlangan, loyiha-smeta hujjatlarini kelishish bo'yicha arxitektura-shaharsozlik kengashining 08.11.2019 yildagi 362-sonli xulosasi bilan "Surxon Arx Proekt" XK loyihalash tashkiloti tomonidan ishlab chiqilgan yer to'lali 1-qavatida savdo va maishiy xizmat ko'rsatish nuqtalari bo'lgan 9 qavatli turar-joy binosining loyiha-taklifi kelishilgan va "Qurilish Tahlil Servis" MChJning 06.01.2022 yildagi 01/03-22-sonli jamlangan ekspertiza hulosasi olingan hamda qurilish-montaj ishlarini boshlash uchun 10.01.2022 yilda belgilangan tartibda xabarnoma yuborilgan.

Shuningdek, Termiz shahar hokimining 04.12.2019 yildagi Q-2938-sonli qarori bilan 23.07.2018 yildagi Q-2009-sonli qarorida ko'rsatib o'tilgan "7 qavatli turar-joy" jumlesi "9 qavatli turar-joy" binosini qurish bo'yicha so'zlari bilan o'zgartirish kiritilgan va viloyat qurilish bosh boshqarmasi tomonidan 06.09.2022 yildagi 49678-sonli 10 qavatli 1-qavatida savdo va maishiy xizmat ko'rsatish nuqtalari bo'lgan ko'p qavatli

turar-joy binosini qurish uchun arxitektura-rejalashtirish topshirig'i tayyorlangan. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 20.04.2022 yildagi "Qurilish sohasiga oid yagona ma'muriy qurilish reglamentlarini tasdiqlash to'g'risida"gi 200-sonli qarorining 4-ilovasida loyiha-smeta hujjatlarining arxitektura qismini kelishish uchun davlat xizmatlari markazi orqali murojaat etib, Surxondaryo viloyat qurilish bosh boshqarmasi huzuridagi arxitektura-shaharsozlik kengashining ijobjiy xulosasi olinishi ko'rsatib o'tilgan bo'lsada, bosh boshqarmasi tomonidan faqatgina 10-qavatli turar-joy binosining fasad ko'rinishi kelishilgan.

Mazkur qarorning 5-ilovasida qurilish-montaj ishlarini boshlash to'g'risida viloyat qurilish sohasidagi hududiy nazorat inspeksiyasiga xabarnoma yuborib davlat ro'yxatidan o'tgan holatda qurilish-montaj ishlarini olib borilishi belgilab qo'yilgan bo'lsada, "Qurbanov Normo'min" MChJ tomonidan bugungi kunda qurilgan 9 qavatli turar-joy binosining 10-qavatini shaharsozlik normalari va qoidalariiga zid ravishda qurilish-montaj ishlari olib borilayotganligi aniqlandi.

Biroq, bugungi kunga qadar "Qurbanov Normo'min" MChJ tomonidan Inspeksiya ko'rsatmalari ijrosi ta'minlanmasdan, o'zboshimchalik bilan qurilish-montaj ishlari davom ettirib kelinmoqda.